“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



X. Sulaymonova nomidagi Respublika ekspertiza muassasasiga yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlariga muvofiq ekspertiza tayinlashning huquqiy jihatlari

Oybek Mansurov,
X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi huzuridagi
Sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
e-mail: oybekoybek2237@gmail.com

Аннотация. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinyapti, qaysiki fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasida bir qator islohotlar o‘tkazilib kelinmoqda, shu bilan birga zamonaviy huquqiy davlat qurilishi sharoitida X. Sulaymonova nomidagi davlat sud ekspertiza muassasining roli tobora ortib bormoqda. Sud-ekspertiza faoliyati nafaqat jinoiy ishlarni hamda fuqarolik ishlarni hal qilishda va yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markaziga yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida ekspertiza tayinlashning huquqiy jihatlari tahlil etiladi. Muallif amaldagi normativ-huquqiy bazani, mutaxassis fikrining tuzilishi va uning protsessual dalilіy ahamiyatini, ekspert xulosasi va mutaxassis fikri o‘rtasidagi huquqiy farqni ko‘rib chiqadi. Maqolada amaliyotda ko‘p uchraydigan kamchiliklar, savollarning noto‘g‘ri qo‘yilishi, zarur materiallarning to‘liq taqdim etilmasligi, advokat so‘rovlarini qonunchilik talablari bilan cheklash masalalari alohida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida sud ekspertizasi sifatini oshirish, yuridik kadrlarning malakasini yuksaltirish va advokat hamda ekspertlarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi.

Калит сўзлар. sud ekspertizasi, mutaxassis fikri, E-ekspertiza, ekspert xulosasi, jismoniy shaxs murojaati, yuridik shaxs murojaati, davlat sud ekspertiza muassasasi, advokat so‘rovi, tekshirish obyektlari

Аннотация. В последние годы в Республике Узбекистан принимается ряд нормативно-правовых актов и проводится ряд реформ в сфере работы с обращениями граждан и юридических лиц. Вместе с тем, в условиях построения современного правового государства неуклонно возрастает роль Государственного судебно-экспертного учреждения имени Х. Сулеймановой. Судебно-экспертная деятельность играет важную роль не только в разрешении уголовных и гражданских дел, но и в защите прав и законных интересов юридических и физических лиц. В данной статье анализируются правовые аспекты назначения экспертизы на основании обращений юридических и физических лиц в

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Республиканский центр судебной экспертизы имени Х. Сулеймановой. Автор рассматривает действующую нормативно-правовую базу, структуру заключения специалиста и его процессуальное доказательственное значение, а также правовое различие между заключением эксперта и заключением специалиста. В статье отдельно анализируются часто встречающиеся на практике недостатки, такие как некорректная постановка вопросов, неполное предоставление необходимых материалов, а также вопросы ограничения адвокатских запросов требованиями законодательства. На основе результатов исследования выдвигаются практические предложения по повышению качества судебной экспертизы, повышению квалификации юридических кадров и усилению взаимодействия между адвокатами и экспертами.

Ключевые слова. судебная экспертиза, заключение специалиста, Е-экспертиза, заключение эксперта, обращение физического лица, обращение юридического лица, государственное судебно-экспертное учреждение, адвокатский запрос, объекты исследования

Annotation. In recent years, a number of regulatory legal acts have been adopted in the Republic of Uzbekistan, and several reforms have been implemented regarding the handling of appeals from individuals and legal entities. In this context of building a modern, law-governed state, the role of the Kh. Sulaymonova State Forensic Science Institution is continuously growing. Forensic science activities play a crucial role not only in resolving criminal and civil cases but also in protecting the rights and legitimate interests of legal and natural persons. This article analyzes the legal aspects of commissioning expert examinations based on appeals from legal and natural persons to the Kh. Sulaymonova Republican Center for Forensic Expertise. The author examines the current regulatory and legal framework, the structure and procedural evidentiary significance of a specialist's opinion, and the legal distinction between an expert conclusion and a specialist's opinion. The article specifically analyzes common shortcomings in practice, such as the incorrect formulation of questions, the incomplete submission of necessary materials, and the issue of limiting attorney inquiries by legislative requirements. Based on the research findings, practical proposals are put forward to improve the quality of forensic examinations, enhance the qualifications of legal personnel, and strengthen the collaboration between attorneys and experts.

Keywords. forensic examination, specialist's opinion, E-expertise, expert conclusion, individual's appeal, legal entity's appeal, state forensic science institution, attorney's inquiry, objects of examination

Qayd etish lozimki, Prezidentning 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] PF-6256-son Farmoni bilan davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq sud ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish huquqi berildi. Tadqiqot natijalari yuzasidan mutaxassis fikri taqdim qilinadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ushbu huquq jismoniy va yuridik shaxslarga huquq va manfaatlarini himoya qilishiga yaqindan ko‘maklashmoqda.

Bugungi kunda ushbu murojaatlar quyidagi hujjat bilan tartibga solib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi[2] namunaviy nizomga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq mutaxassis fikri jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida amalga oshiriladigan tadqiqotlar natijasi yuzasidan mutaxassis (sud eksperti)ning belgilangan tartibda rasmiylashtiriladigan fikri hisoblanadi.

Mutaxassisning bergan ma’lumoti, fikrining daliliy ahamiyati. Jinoyat-protsessual kodeksida mutaxassisning holat yuzasidan fikr berish va texnik jihatdan yordam berish, taftish o‘tkazish kabi funksiyalari mavjud. Ammo ushbu holatda taftish jinoyat ishini qo‘zg‘atishga asos bo‘luvchi omillardan biri hisoblanadi. Taftish jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan oldin o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan dalillarni to‘plash usullaridan biri sanaladi. Ammo uning natijasi bo‘lgan dalolatnomani yolg‘on aralashtirib yozganligi, ya’ni yolg‘on dalolatnoma berganlik uchun javobgarlik Jinoyat-protsessual kodeksida mavjud emas. Fikrimizcha, ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida qonunga yolg‘on dalolatnoma berganlik uchun mutaxassisga javobgarlik belgilash talab qilinadi.

Amaliyotda asosan jismoniy va yuridik shaxslar quyidagi tur ekspertizalar bo‘yicha ko‘proq murojaat qilishadi; sud-avtotexnika ekspertiza yo‘nalishi bo‘yicha quyidagicha savollarga yechim beriladi: yo‘l transport hodisasi natijasida avtomobilga qancha miqdorda moddiy zarar yetkazilgan yokida avtomobilning bugungi kundagi bozor bahosini aniqlashda, hujjatlar kriminalistik ekspertizasi bo‘yicha ham ko‘plab murojaatlar kelib tushadi quyidagi masalalarda hujjatlarni qalbakilashtirish tilxatning kim tomonidan yozilganini aniqlashda, soxtalashtirilgan imzoni aniqlashda, qalbaki pullarni aniqlashda, odam DNKsini sud biologik ekspertizasida otalik yoki onalik yoxud qarindoshlik masalasini hal qilishda, bolaning qaysi sportga salohiyati bor yoki yo‘qligini aniqlashda. Bundan tashqari sud-qurilish-texnikaviy ekspertizasida ham quyidagi savollarga yechim beradi, ya’ni nikoh ajrimlarida uy-joy mol-mulklarni baholashda odil sudlovni ta’minlab kelmoqda va boshqa turdagi ekspertiza tadqiqotlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bugungi kunda yechimini topmoqda.

Yuridik va jismoniy shaxslarda davlat sud ekspertiza muassasiga ekspertiza tayinlash uchun quyidagi shartlar bajarilishi kerak. Jumladan, ko‘pincha murojaat yozma shaklda qabul qilinib kelinmoqda, shu o‘rinda ma’lumot uchun elektron tarzida E-ekspertiza tizimi orqali ekspertiza tayinlash bo‘yicha imkoniyatlar ustida ishlanmoqda tez orada amaliyotga to‘liq joriy etiladi. Quyidagi elementlar bo‘lishi zarur: murojaat qiluvchining to‘liq ismi (yoki yuridik shaxs nomi) va rekvizitlari; ekspertiza tayinlanishida

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

tadqiqot o‘tkazilishi uchun ekspertiza obyektini ko‘zdan kechirish uchun uni taqdim qilish, ekspert hal qilishi uchun savollar ro‘yxatini shakllantirish va ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati (mulkchilik hujjatlari, shartnomalar, video disklar, audio yozuvi tushirilgan xotira qurilmalar va boshqalar). Murojaat qilgan jismoniy va yuridik shaxslar bilan tegishli shartnoma tuziladi, shartnomada tadqiqot turining murakkablik darajasiga qarab to‘lov undiriladi[3].

Tadqiqot o‘tkazishning muddatlari ishning oddiy, o‘rta, murakkabligiga qarab 10, 20, 30 kun. Agar tekshirish obyektlari soni ko‘p bo‘ladigan bo‘lsa tomonlarning kelishuviga asosan muddat yana uzaytirilishi mumkin. Ko‘p hollarda amaliyotda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tez o‘rganishlar olib borilib, ilmiy asoslangan mutaxassis fikrlarini tajribali ekspertlar tomonidan olishadi[4].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib mutaxassis fikri tushunchasining tuzilishi haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, mutaxassis fikri uch qismdan: kirish, tadqiqot va fikr (yakunlovchi) qismlaridan iborat bo‘ladi. Mutaxassis fikrining kirish qismida tadqiqot o‘tkazilgan sana va joy, tadqiqot o‘tkazishning asosi, tadqiqot buyurtmachisi (yuridik yoki jismoniy shaxs) to‘g‘risidagi ma’lumotlar, sud eksperti (familiyasi, ismi, otasining ismi, ma’lumoti, ixtisosligi, ish staji, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni, egallab turgan lavozimi) va tadqiqot o‘tkazish topshirilgan davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar haqidagi ma’lumotlar, sud eksperti oldiga hal etish uchun qo‘yilgan savollar, unga taqdim etilgan tadqiqot obyektlari va ish materiallari qayd etiladi.

Mutaxassis fikrining tadqiqot qismida sud eksperti oldiga qo‘yilgan har bir masala bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish jarayoni, qo‘llangan usullar ko‘rsatilgan holda tadqiqotlarning mazmuni va uning natijalari yoziladi, aniqlangan faktlar bo‘yicha ilmiy tushuntirish beriladi.

Mutaxassis fikrining yakunlovchi qismida tadqiqot natijalarining baholanishi, qo‘yilgan savollarga berilgan asosli javoblar qayd etiladi. Tadqiqot natijalarini tasvirlovchi ish materiallari mutaxassis fikrida aks ettiriladi yoki unga ilova qilinadi hamda uning tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Sud eksperti xulosasi va mutaxassis fikri ikki nusxada tuziladi hamda tadqiqotlarni o‘tkazgan sud eksperti (sud ekspertlari) tomonidan imzolanadi. Uning (ularning) imzosi ekspertiza tashkiloti muhri bilan tasdiqlanadi, shundan keyin xulosa yoki mutaxassis fikrining bir nusxasi ekspertiza tashkiloti rahbari tomonidan ekspertizani tayinlashga vakolatli organ (shaxs)ga, advokat, mutaxassis fikri esa tegishli jismoniy yoki yuridik shaxsga taqdim etilgan ish materiallari bilan birga yuboriladi, ikkinchi nusxasi esa ekspertiza tashkilotida 5 yil mobaynida saqlanadi.

Ekspertiza tashkiloti advokatning so‘rovi hamda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini o‘rganadi va ularga 3 ish kuni ichida

shartnoma rasmiylashtirish uchun taqdim etiladi. Sud ekspertizalarini tayinlash to‘g‘risidagi hujjatlarning faksimili va yorug‘ sezgir qog‘ozga ko‘chirilgan nusxalarini taqdim etishga yo‘l qo‘yilmaydi[5].

Bugungi kunda yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlariga asosan davlat sud ekspertiza muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar natijasida beriladigan mutaxassis fikrining sud-tergov organlari tomonidan baholanishi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Amaldagi protsessual amaliyotda sudyalar, tergovchilar hamda surishtiruv organlari ko‘pincha ekspert xulosasini mutaxassis fikridan ustun qo‘yadilar. Biroq mazkur yondashuv har doim ham ilmiy va mantiqiy jihatdan asosli emas. Chunki har ikkala holatda ham maxsus bilimga ega shaxs tomonidan tadqiqot amalga oshiriladi va ilmiy asoslangan natija taqdim etiladi.

Asosiy farq shundaki, ekspert xulosasi protsessual tartibda tayinlangan ekspertiza natijasida shakllanadi va ekspert qonunchilikda belgilangan tartibda bila turib yolg‘on xulosa berganlik uchun JPKning[6] 238, 240-moddalari bilan jinoiy javobgarlik haqida ogohlantiriladi. Mutaxassis fikrida esa bunday protsessual ogohlantirish mavjud bo‘lmaydi.

Shu sababli amaliyotda ekspert xulosasi “kuchliroq dalil” sifatida qabul qilinmoqda. Biroq ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda tadqiqot metodikasi, foydalanilgan ilmiy usullar va obyektlarning xususiyatlari ko‘p hollarda bir xil bo‘lishi mumkin. Ya’ni bir xil ekspert yoki mutaxassis aynan bir obyekt bo‘yicha deyarli bir xil ilmiy natijaga keladi.

Masalan, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi mutaxassislari tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxs murojaati asosida tayyorlangan ekspertiza turlari bo‘yicha tadqiqot natijalari keyinchalik sud-tergov organlari tayinlagan ekspertiza xulosalari bilan mazmunan mos kelayotgan holatlar amaliyotda tez-tez uchraydi.

Yana bir ko‘p uchraydigan kamchilik ekspertga beriladigan savollarning noto‘g‘ri qo‘yilishidir. Advokatlar va jismoniy shaxslar ko‘pincha juda umumiy yoki, aksincha, o‘ta ixtisoslashgan savollarni qo‘yadi. Bu esa ekspertga asoslangan xulosa tayyorlashni qiyinlashtiradi. Masalan, “zararning sabablarini aniqlang” deb so‘rash o‘rniga, “uni kim keltirib chiqarganini aniqlang” deb so‘rash mumkin, bu esa ekspert vakolatiga kirmaydi va qo‘shimcha tekshiruvni talab qiladi.

Ekspertiza o‘tkazish chegaralarini bunday noto‘g‘ri tushunish ko‘pincha ishtirokchilarning ekspertlik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini va ekspertlarning imkoniyatlarini tushunmasliklari bilan bog‘liqdir[7:312-318].

Bundan tashqari, tekshirish obyektlari yoki tegishli materiallar bilan to‘liq ta’minlanmaganligi sababli xatoliklar yuzaga keladi. Advokatlar va fuqarolar har doim ham zarur hujjatlar, ashyoviy dalillar yoki texnik namunalarning to‘liq to‘plamini to‘play

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

olmaydilar, bu esa ekspertning to‘liq xulosa berish imkoniyatini cheklaydi. Natijada ekspert xulosasi to‘liq bo‘lmasligi va uning xulosasi bahsli bo‘lishi mumkin. Bu ko‘pincha jarayon ishtirokchilarining yetarli darajada tayyorgarlik ko‘rmaganligi va ekspertiza muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish ko‘nikmalarining yetishmasligi bilan bog‘liq.

Advokatlar va ekspertiza tayinlash uchun mas’ul bo‘lgan boshqa shaxslarning bilimlari yetarli emasligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, aynan ekspertiza predmetini va ekspertning imkoniyatlarini noto‘g‘ri belgilash osonlikcha oldini olish mumkin bo‘lgan xatolarga olib keladi. Tergovchilar, surishtiruvchilar va advokatlar ko‘pincha savollarni tayyorlash va materiallarni to‘plash bosqichida ekspertlar bilan maslahatlashish zarurligini yetarlicha baholamaydilar, bu esa tadqiqot sifatini pasaytiradi. Xuddi shuningdek, ekspertlarning o‘zlari, ayniqsa, yoshroq yoki tajribasi kamroq bo‘lganlari, ba’zida taqdim etilgan ma’lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin, bu ham yetarli kasbiy tayyorgarlik va amaliy tajribaning yo‘qligi bilan bog‘liq[8:112-113].

Shuningdek, Nizom talablariga muvofiq advokatlarga qo‘shimcha huquqlar berilgan bo‘lib, ular iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ishlar bo‘yicha ish yuritish jarayonida, ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida yoki sud muhokamasi davomida davlat sud-ekspertiza muassasalari hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida, ishonch bildiruvchi shaxsning roziligi bilan sud ekspertizasi o‘tkazilishini so‘rash huquqiga ega hisoblanadi.

Bundan tashqari, advokat sud ekspertizasi xulosasining ish materiallariga qo‘shib qo‘yilishini hamda mazkur xulosaning sud tomonidan ishdagi boshqa mavjud dalillar bilan birgalikda baholanishini talab qilish huquqiga ega. Shu bilan birga, advokat so‘roviga ko‘ra sud ekspertizasi xulosasini taqdim etish muddatlari davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilanishi nazarda tutilgan.

Amaliyotda advokatlarning ayrim so‘rovlari asosida jinoyat ishlari bo‘yicha ham ekspertiza tayinlash holatlari uchrab, keyinchalik bunday so‘rovlar ijrosiz qaytarilmoqda. Vaholanki, amaldagi qonunchilikka ko‘ra advokatlarga faqat iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ish yuritish doirasida, ishni sud muhokamasiga tayyorlash bosqichida yoki sud muhokamasi jarayonida ekspertiza muassasasiga murojaat qilib, sud ekspertizasini o‘tkazishni so‘rash huquqi berilgan. Mazkur vakolat jinoyat ishlari bo‘yicha tatbiq etilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan taqdim etilayotgan ekspertiza xulosalari va mutaxassis fikrlari yuridik hamda jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ekspertlar murojaatlarni ko‘rib chiqishda mas’uliyat va vijdonlilik tamoyillariga amal qiladilar. Biroq

uchrayotgan ayrim kamchiliklar muammoning ekspert faoliyatida emas, balki protsess ishtirokchilari va ekspertlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik hamda muloqot mexanizmlarida mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur masalani bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi. Xususan, yuridik kadrlarning malakasini oshirish, ekspertiza tayinlashdan oldin mutaxassis yoki ekspert bilan maslahatlashish amaliyotini keng joriy etish mavjud kamchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan huquqiy bazani takomillashtirish, protsess ishtirokchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, advokatlar va ekspertlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash sud ekspertizasi sifati va samaradorligini yanada oshirishga imkon beradi.

Tadqiqotning asosiy taklifi sifatida ekspertiza tayinlanishidan oldingi bosqichda o‘ziga xos “dastlabki filtr” mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur mexanizm tanlangan ekspertiza turining to‘g‘riligini, ekspert oldiga qo‘yilgan savollarning aniqligi va asoslanganligini hamda taqdim etilgan materiallarning yetarliligini dastlabki baholash imkonini beradi. Ushbu chora-tadbirlarning amaliyotga tatbiq etilishi sud ekspertizasining samaradorligini oshirishga, dalillarning sifatini yaxshilashga hamda odil sudlovni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.07.2021-yildagi PF-6256-son https://lex.uz/docs/-5491507
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.02.2023-yildagi 73-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.02.2026-yildagi 74-son https://lex.uz/docs/-8058586
4. O‘zbekiston Respublikasining “Sud-ekspert faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/acts/-6388692
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi https://lex.uz/docs/-111460
6. Аверьянова Т.В. Судебная экспертиза: курс общей теории. – М.: Норма, 2006. – С. 312-318.
7. Россинская Е.Р. Судебная экспертиза: типичные ошибки: 2-е издание, монография / под ред. Россинской Е.Р. – М.: Проспект, 2024. – С. 112-118.
8. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги ҳузуридаги Х. Сулаймонова номидаги Республика суд экспертиза марказида суд экспертизаси тадқиқотларини ўтказиш тартиби тўғрисида низом (Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2023-йил 10-апрелдаги 72-ум-сон буйруғи)